

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA KAMOLA RUSTAMOVNA

**SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH UCHUN MUHANDIS
XODIMLARNI TAYYORLASHNING KOMPYUTERLI
O‘QITISH TIZIMLARI**

**05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va
boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abdullayeva Kamola Rustamovna

Sanoat korxonalarini boshqarish uchun muhandis xodimlarni tayyorlashning kompyuterli o‘qitish tizimlari.....3

Абдуллаева Камола Рустамовна

Компьютерные обучающие системы для подготовки инженерного персонала для управления промышленными предприятиями.....21

Abdullaeva Kamola Rustamovna

Computer-based training systems for the preparation of engineering personnel for industrial enterprise control.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works42

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA KAMOLA RUSTAMOVNA

**SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH UCHUN MUHANDIS
XODIMLARNI TAYYORLASHNING KOMPYUTERLI
O‘QITISH TIZIMLARI**

**05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va
boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3886 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Avazov Yusuf Shodiyevich**
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Sevinov Jasur Usmonovich**
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Ivanyan Arsen Ignatyevich
texnika fanlari doktori (DSc)


Yetakchi tashkilot: **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «25» 10 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 207-07-32; faks: (99871) 207-14-64; e-mail: tsu_info@tdtu.uz).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (46 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil «23» 08 dagi 409 raqamli reyestr bayonnomasi).




N.R. Yusupbekov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor, O'zR FA akademigi

U.F. Mamirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori (DSc), professor


X.Z. Igamberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash doshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor, O'zR FA akademigi

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda soʻnggi vaqtlarda texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish sohasida ilgʻor mamlakatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotgan murakkab texnologik va texnik tizimlarni boshqarish tamoyillarini operatorlarga oʻrgatishda va ularning koʻnikmalarini baholashda kompyuterli trenajyorlardan foydalanishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bugun simulyatorlar asosida mutaxassislarni oʻqitishning kimyo, neftkimyo, energetika, shuningdek harbiy sohalarda keng qoʻllanilishi sanoat tarmoqlarida yetakchi oʻrinni egallab kelmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda turli texnologik jarayonlarni simulyatsiyalovchi simulyatorlar va kompyuterli trenajyorlar asosida texnologik jarayonlar va qurilmalarni optimal boshqaruvchi muhandis-operatorlarni turli vaziyatlarda jarayonlarni boshqarish koʻnikmalarini yaxshilash va avariya holatlar sonini kamaytirish orqali sanoatda xavfsizlik va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiluvchi, tarkibida kompyuterli trenajyori mavjud oʻqitish tizimlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Jahonda turli murakkab aralashmalarni ajratish texnologik jarayonlarini boshqarish sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, mahsulotlarning sifat koʻrsatkichlarini yaxshilash boʻyicha avtomatlashtirilgan tezkor tizimlarni yaratish, ajratish jarayonining dinamikasini yaxshi tavsiflovchi matematik modellarni olish, texnologik jarayonlarni boshqaruvchi operatorlarni oʻqitish, ularning bilim va malakalarini baholovchi takomillashtirilgan kompyuterli trenajyorlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan, turli texnologik jarayonlarni boshqaruvchi energiyatejamkor tizimlarni ishlab chiqish va ularni turli avariya holatlarsiz boshqarishga xizmat koʻrsatuvchi muhandis-operatorlarning malaka va koʻnikmalarini ishlab chiqarish vaziyatlariga mos ravishda oshirish, bilimlarini baholashga xizmat qiluvchi virtual funksiyali kompyuterli trenajyorlarni yaratish boʻyicha tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda fan va texnikaning texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish yoʻnalishlariga katta eʼtibor qaratilib, jumladan, aralashmalarni ajratish texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarishda energiya va resurs tejamkorlikni, texnologik jarayonlar va qurilmalar ishini operatorlar tomonidan boshqarishda texnik va texnologik xavfsizlikni taʼminlashga xizmat qiluvchi malakalarni hosil qilishda muhim rol oʻynaydigan kompyuterli trenajyorli oʻqitish tizimlarini yaratishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "... iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlaridagi mehnat unumdorligini oshirish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, sanoat korxonalaridagi murakkab texnologik jarayonlar va qurilmalarni boshqarishning intellektual tizimlarini yaratish va ularni boshqaruvchi muhandis-operator bilim va malakalarini oshirishda real ishlab

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida toʻgʻrisida"gi Farmoni

chiqarish vaziyatlarini o‘zida aks ettiruvchi kompyuterli trenajyorlarni ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF – 6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022 “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 18-apreldagi PQ-3673 “Idoraviy axborot tizimlarini jadal integratsiyalash va innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining III. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” hamda VI. “Kimyo texnologiyalari, neftkimyo va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon miqyosida ilmiy-tadqiqotlar natijasida ajratishning murakkab texnologik jarayonlarini nazorat qilish va boshqarishning yuqori samarali tizimlarini rivojlantirishga: “Honeywell”, Massachusetts Institute of Technology (AQSh), “Siemens” va University of Münster (Olmoniya), Imperial College London (Buyuk Britaniya), Osaka University va Tokyo Institute of Technology (Yaponiya), Korea Advanced Institute of Science and Technology (Janubiy Koreya), “Alstom” (Fransiya), “Simatek-Energo” (Belarus), Rossiya kimyo-texnologiya universiteti (Rossiya) kabi yetakchi ilmiy va oliy ta‘lim muassasalari hamda Erik Claesson², V.M.Dozorov³, D.V.Kneller⁴, N.V.Livensova⁵, Kim Min Su⁶, O.V.Nagayseva⁵, N.G.Rakhimov⁷, D.S.Ribakov⁸, Van Wyk⁹, S.I.Magid¹⁰, I.Sh.Zagretdinov¹⁰ va boshqa xorijiy olimlar hissa qo‘shishgan.

² Erik Claesson *et al.* Evolution of iron carbides during tempering of low-alloy tool steel studied with polarized small angle neutron scattering, electron microscopy and atom probe: <https://www.researchgate.net/publication/365151046>

³ В.М.Дозорцев. Компьютерные тренажеры для обучения операторов технологических процессов. -М.: Синтер, 2009. -365с.

⁴ D.V.Kneller. Supercomputer-Based Ensemble Docking Drug Discovery Pipeline with Application to Covid-19 Cover: (2020) Journal of Chemical Information and Modeling. 60(12).-PP.5832-5852.

⁵ О.В.Нагайцева, Н.В.Ливенцова, С.Н.Ливенцов. Концепция тренажерной модели электрохимического производства // Известия Томского политехнического университета, 2009. -Т.315. “Управления, вычислительная техника и информатика”, 2009. –С.89-92.

⁶ Kim Min Su. LLM Serving Sim: A HW/SW Co-Simulation Infrastructure for LLM Inference Serving at Scale // School of Computing KAIST Daejeon, South Korea jhcho@casys.kaist.ac.kr

⁷ Н.Г.Рахимов и др. эффективность симуляционного обучения по базовым реанимационным мероприятиям в условиях центра обучения практическим навыкам ТГМУ имени Абу Али Ибни Сино // ВЕСТНИК АВИЦЕННЫ, 2017. –Т.19. -№ 4 -С.467-470. [doi: 10.25005/2074-0581-2017-19-4-467-470](https://doi.org/10.25005/2074-0581-2017-19-4-467-470)

⁸ Рыбаков Д.С., Дергачёва Л.М. Компьютерное моделирование: задачи оптимизации // Вестник РУДН. Сер. Информатизация образования, 2007. -№ 2-3.

⁹ Van Wyk, E.A., De Villiers, M.R., 2019. An evaluation framework for virtual reality safety training systems in the South African mining industry. J. South Afr. Inst. Min. Metall. 119 (5), 427–436. <https://doi.org/10.17159/2411-9717/53/2019>

¹⁰ Магид С.И., Загретдинов И.Ш. и др. Нормирование цифровых технологий тренажерных систем как способ обеспечения надежности условий обслуживания объектов электроэнергетики. Надежность и безопасность энергетики. 2019;12(3):177-189. <https://doi.org/10.24223/1999-5555-2019-12-3-177-189>

Mamlakatimizda aralashmalarni ajratish texnologik jarayonlarini matematik modellashtirish, optimallashtirish va boshqarish tizimlarini ishlab chiqishning ilmiy muammolarini yechishga T.F.Bekmuradov¹¹, Sh.M.Gulyamov¹², M.A.Ismailov¹³, U.V.Mannanov¹⁴, D.P.Muxitdinov¹⁵, Sh.N.Nuritdinov, N.R.Yusupbekov¹², S.G.Zakirov¹⁶ kompyuterli trenajyorlarni ishlab chiqish masalalarini rivojlantirishga F.T.Adilov¹⁷, A.I.Ivanyan¹⁸, E.A.Migranova¹⁷ va boshqa olimlar o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shishgan.

Biroq so‘nggi yillarda sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlari murakkablashib, ular yordamida turli texnologik jarayonlarni samarali va xavfsiz boshqarish ko‘nikmalarini hosil qiluvchi kompyuterli trenajyorlarga ega o‘qitish tizimlarini ham takomillashtirish talab etilmoqda. Shu bilan birgalikda, yuqori samarali boshqarish tizimlarini yaratishda intellektual texnologiyalar va usullardan to‘laqonli foydalanish imkoniyatlariga yetarli darajada e‘tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarning OT-F7-88 – “Toza mahsulotlar olishning energiya va resurstejamkor issiqlik-massa almashinish jarayonlarining istiqbolli murakkab kimyo-texnologik tizimlarining nazariy asoslarini takomillashtirish” (2017–2020) va FL-9524115110 – “Sanoat 4.0” strategiyasi asosida murakkab texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni boshqarishda sun‘iy intellektdan foydalanish va raqamlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari” (2025-2029) mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aralashmalarni ajratish texnologik jarayonlarini boshqarishning intellektual tizimlari hamda jarayonlarini boshqaruvchi muhandis-operatorlarni o‘qitish uchun takomillashgan funktsiyali kompyuterli trenajyorni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat korxonalaridagi muhandis xodimlarning bilim va malakalarini baholash imkonini beradigan kompyuterli trenajyor qurish uchun boshqariladigan texnologik

¹¹ Bekmuratov T.F. Systematization of intellectual decision support systems // Uzb. journal “Problems of Informatics and Energy”. 2003. № 4. -PP. 25–35.

¹² N.R.Yusupbekov, Sh.M.Gulyamov *et al.* Simulation of Chemical-Technological Complexes / 10th International Conference on Theory and Application of Soft Computing, Computing with Words and Perceptions - ICSCCW-2019. Springer Nature Switzerland AG, 2020. -PP.588–595.

¹³ M.A. Ismailov, M.A. Isokova. (2023). An information-conceptual model of the extraction process of plant raw materials. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(09), 458–462. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/282>

¹⁴ U.Mannanov *et al.* Modeling of Vegetable Oil Miscellaneous Drive Process in Final Distiller Spray Zone // Proceedings of the 11th International Conference on Applied Innovations in IT, (ICAIIIT), March 2023. –PP.193-198.

¹⁵ D.Mukhitdinov, Yo.Kadirov *et al.* Rectification process control by separation process efficiency evaluation using a predictive model / EPJ Web Conf., 321 (2025) 01013. DOI: <https://doi.org/10.1051/epjconf/202532101013>

¹⁶ Zakirov, S.G., Karimov, K.F. *et al.* Performance of refrigerating plant with efficient heat exchangers. *Chem Petrol Eng* 44, 198–201 (2008). <https://doi.org/10.1007/s10556-008-9036-4>

¹⁷ Ф.Т.Адиллов, Э.А.Мигранова Построение концептуальных моделей деятельности оператора. Респуб. межвуз. сб. науч. трудов. «Актуальные вопросы в области технических и фундаментальных наук»: – Ташкент.2011. - С.295-297.

¹⁸ A.I.Ivanyan *et al* (2024). Development and Optimization of Digital Twin Model for the Deethanizer Distillation // 12th World Conference “Intelligent System for Industrial Automation” (WCIS-2022). Lecture Notes in Networks and Systems, vol 912. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-53488-1_14

jarayonni tavsiflovchi matematik modellarni ishlab chiqish;

murakkab texnologik jarayonlarni boshqaruvchi operatorlarning bilim va malakalarini diagnostika qiluvchi algoritm ishlab chiqish;

sanoat ishlab chiqarishidagi turli vaziyatlar (avariyalar, insidentlar)ning ssenariylari asosida operatorlarning bilim va malakalarini nazorat qilish uslubiyatini ishlab chiqish;

ajratish jarayonini tavsiflovchi matematik modellar asosida takomillashgan funksiyali intellektual kompyuterli trenajyorni ishlab chiqish;

ajratish jarayonini boshqarishning sifatini yaxshilash imkonini beradigan boshqarish tizimining strukturasi takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti aralashmalarni ajratish kolonnalari, ajratish jarayonlarini boshqarish tizimlari va kompyuterli trenajyorlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti ajratishning murakkab texnologik jarayonlarini boshqarish usullari, algoritmlari va operatorlarning boshqarish malakalarini nazorat qilish va baholash usullarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida avtomatik boshqarishning zamonaviy nazariyasi, noaniq mantiq usullari, sun'iy intellekt nazariyasi, qaror qabul qilish usullari, analitik hisob usullari, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni modellashtirish va optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ma'lumotlarni neyron tarmoqli intellektual tahlil qilish asosida muhandis-operatorlarning bilimini diagnostika qilish va baholash imkonini beradigan va aralashmalarni ajratish jarayonini aks ettiradigan takomillashgan funksiyali intellektual kompyuter trenajyori ishlab chiqilgan;

aralashmalarni ajratish texnologik jarayonining noaniq mantiqli modeli asosida turli vazifalarga mo'ljallangan boshqarish tizimlari va kompyuter trenajyor-o'quv majmualarini yaratish imkonini beruvchi algoritm ishlab chiqilgan;

sanoat ishlab chiqarishidagi vaziyatlar ssenariylari asosida turli avariya va insidentlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholash imkonini beruvchi texnologik jarayonlarni boshqarish operatorlarining bilimlarini nazorat qilish uslubiyati ishlab chiqilgan;

matematik tavsif va moddiy balans qonuniyatlaridan foydalangan holda aralashmalarni ajratish jarayonini bosqichma-bosqich tavsiflash usuli asosida matematik modelning aniqligini oshirish imkonini beradigan matematik modellashtirish algoritmi ishlab chiqilgan;

vaziyatli boshqarish usuli va Ashyolar interneti texnologiyalari asosida aralashmalarni ajratish jarayonini boshqarish sifatini oshirish imkonini beruvchi intellektual boshqarish tizimlarining strukturalari taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aralashmalarni ajratish jarayonini intellektual boshqarish tizimlarining strukturaviy sxemalari ishlab chiqilgan;

ajratish texnologik jarayonini boshqarish tizimi uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan;

muhandis-operatorlar bilimi va ko'nikmalarini baholovchi takomillashgan funksiyali kompyuterli trenajyor uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan;

operatorlar bilim va ko'nikmalarini tashxislash algoritmi ishlab chiqilgan; ajratish jarayonini boshqarishni o'rgatuvchi kompyuterli trenajyor uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi vaziyatli boshqarish usullari va intellektual texnologiyalarga asoslanib, aralashmalar ajratish jarayonlarini intellektual boshqarish tizimining strukturaviy sxemalari va operatorlar uchun kompyuterli intellektual trenajyorni ishlab chiqish, shuningdek, o'tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalarining o'zaro muvofiqligi, sanoat-sinov tajribalari natijalarining ijobiyligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ajratish jarayonining matematik modeli, intellektual boshqarish tizimining strukturalarini sintezlash va takomillashgan funksiyali kompyuterli intellektual trenajyorni ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ajratish jarayonini boshqarish uchun ishlab chiqilgan intellektual tizim, operatorlarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash usuli, algoritmidan kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi ajratish jarayonlarini boshqarishda foydalanish va boshqaruvchi muhandis-operatorlarning ko'nikmalarini oshirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat jarayonlarini boshqaruvchi muhandis xodimlarni o'qitish tizimi va boshqarish tizimini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

muhandis-operatorlarning bilim va ko'nikmalarini baholash imkoniyatini beruvchi ko'p funksiyali kompyuterli trenajyor "Maxam-Chirchiq" AJda joriy qilingan ("O'zkimyosanoat" AJ ning 2025-yil 28-fevraldagi 13-647-son ma'lumotnomasi). Natijada ajratish jarayonini boshqarish tizimini boshqaruvchi operatorlarning malaka va ko'nikmalari oshib, boshqarishning sifatini yaxshilash imkonini bergan;

muhandis-operatorlarning bilim va ko'nikmalarini diagnostika qilish, baholash algoritmi va uslubiyati "Maxam-Chirchiq" AJda joriy qilingan ("O'zkimyosanoat" AJ ning 2025-yil 28-fevraldagi 13-647-son ma'lumotnomasi). Natijada muhandis-operatorlarning bilim va ko'nikmalarini yanada obyektiv baholash imkonini bergan;

aralashmalarni ajratish jarayonini boshqarishning intellektual tizimi "Maxam-Chirchiq" AJda joriy qilingan ("O'zkimyosanoat" AJ ning 2025-yil 28-fevraldagi 13-647-son ma'lumotnomasi). Natijada texnologik jarayonlarni boshqarish sifati yaxshilanishiga va energiya tejamkorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-texnika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Bajarilgan tadqiqot natijalari bo'yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan, O'zR OAK e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 8 ta maqola, shundan 2 tasi xorijda chop etilgan, EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarning qayd qilinganligi to'g'risida 4 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar asosida ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlari va ularni boshqaruvchi muhandislarni o‘qitish uchun kompyuterli trenajyorlarning zamonaviy holati”** deb nomlangan **birinchi bobida** sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlarni boshqaruvchi muhandis-xodimlarni o‘qitish uchun foydalanilayotgan kompyuterli trenajyorlarni loyihalash usullari va qurish tamoyillari tahlil qilingan. Kompyuterli trenajyorlar va simulyatorlarni ishlab chiqish usullari va uslubiyatlarini rivojlantirishning umumiy tendensiyalari, texnologik jarayonlardagi vaziyatlarni kompyuterli trenajyorlarda aks ettirish, modellashtirish va operatorlar uchun topshiriqlarni shakllantirish masalalarini yechishdagi yutuqlar va kamchiliklari tahlil qilingan.

Kiritik tahlil asosida ajratish jarayonlarini boshqarishning intellektual tizimlarini va bu tizimlar uchun matematik modellarni hamda operatorlar uchun topshiriqlarni avtomatik tarzda o‘zi shakllantiruvchi, ularning bilim va ko‘nikmalarini diagnostika qilish va baholash imkonini beruvchi intellektual kompyuterli trenajyorni ishlab chiqishdan iborat dissertatsiya tadqiqotining maqsadi shakllantirilgan va tadqiqot vazifalari belgilab olingan.


Dissertatsiyaning **“Kompyuterli trenajyor qurish uchun aralashmalarni ajratish jarayonini matematik tavsiflash”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** muhandis-xodimlarni o‘qitish uchun foydalaniladigan kompyuterli trenajyorlarni qurishda asos vazifasini bajaradigan texnologik jarayonning matematik modellarini ishlab chiqish amalga oshirilgan. Mazkur bobda turli murakkab aralashmalarni ajratish texnologik jarayoni tanlanib, uning matematik tavsiflanishi va modellari olingan.

Modellashtirishda ajratish jarayoni bitta tarelkaga, kub bug‘latgichiga, kondensatorga va kolonna yuqori qismi flegmasini yig‘ishga teng bo‘lgan elementar bo‘g‘inlar yig‘indisi sifatida qaraladi. 1-rasmda kolonnaning kontakt qurilmasiga kiruvchi va undan chiquvchi asosiy moddiy va issiqlik oqimlari sxematik tarzda aks ettirilgan.

O‘tish jarayoni ketma-ketlikda, bir-biridan $\Delta\tau$ vaqt oralig‘i bilan ajratilgan ma’lum vaqt nuqtalarida hisoblanadi:

$$\tau[k+1] = \tau[k] + \Delta\tau = (k+1) \cdot \Delta\tau;$$

bunda $\tau[0] = 0$, k – butun son, $k=0, 1, \dots, m$.



1-rasm. Ajratish kolonnasi kontakt qurilmasining modda va issiqlik oqimlari sxemasi

Kolonnani hisoblash bir yo‘nalishda, pastdan yuqoriga amalga oshiriladi, shuning uchun j -tarelkaga o‘tishda $\tau[k+1]$ vaqt momentida pastda joylashgan kontakt qurilmasini tark etadigan bug‘ oqimining xususiyatlari ma’lum: $V_{j-1}[k+1]$, $\bar{y}_{j-1}[k+1]$, $H_{j-1}[k+1]$. Tarelkaga kelayotgan suyuqlik oqimi uchun hisob-kitoblarda uning $\tau[k]$ vaqt momentidagi tavsiflarini qo‘llash kerak $\tau[k]$: $L_{j+1}[k]$, $\bar{x}_{j+1}[k]$, $h_{j+1}[k]$.

Hisoblanadigan kattaliklar tarelkani tark etayotgan oqimlarning sarfi va xususiyatlari, shuningdek, keyingi vaqt momentidagi undagi suyuqlik harorati va miqdoridir: $\tau[k+1]$, $L_j[k+1]$, $V_j[k+1]$, $\bar{x}_j[k+1]$, $\bar{y}_j[k+1]$, $h_j[k+1]$, $H_j[k+1]$, $G_j[k+1]$, $t_j[k+1]$.

Ishlab chiqilayotgan matematik modelda jarayonga harakatlanuvchi boshqarish ta’sirlarini hisobga olish maqsadida har bir kontakt qurilmasi ta’minot tarelkasi sifatida ko‘rib chiqiladi:

$$\begin{cases} F_j = q \cdot F, & j = N_{f,1}, \\ F_j = (1-q) \cdot F, & j = N_{f,2}, \\ F_j = 0 & j \neq N_{f,1}, j \neq N_{f,2}. \end{cases} \quad (1)$$

Har bir tarelkaga yuqorida joylashgan kontakt qurilmasidan suyuqlik va pastki qismidan bug‘ keladi. Tarelkadan uning tarkibiga mos keladigan suyuqlik va xususiyatlari kontakt qurilmasidagi massa almashinuvi samaradorligiga bog‘liq bo‘lgan bug‘ chiqib ketadi. Qurilmaning umumiy moddiy balansi quyidagicha:

$$\frac{dG_j}{d\tau} = L_{j+1} + V_{j-1} + F_j - L_j - V_j. \quad (2)$$

Komponentlar bo‘yicha moddiy balans tenglamasi:

$$\frac{d(G_j \cdot x_{j,i})}{d\tau} = L_{j+1} \cdot x_{j+1,i} + V_{j-1} \cdot y_{j-1,i} + F_j \cdot x_{f,j,i} - L_j \cdot x_{j,i} - V_j \cdot y_{j,i}. \quad (3)$$

(3) tenglamani komponentlar konsentratsiyasi bo‘yicha yozamiz:

$$G_j \cdot \frac{dx_{j,i}}{d\tau} = L_{j+1} \cdot (x_{j+1,i} - x_{j,i}) + V_{j-1} \cdot (y_{j-1,i} - x_{j,i}) + V_j \cdot (x_{j,i} - y_{j,i}) + F_j \cdot (x_{f,j,i} - x_{j,i}). \quad (4)$$

Issiqlik balansi tenglamasi (4) ga o'xshash bo'lib, issiqlik to'planishi tarelkadagi suyuqlik entalpiyasining o'zgarishi bilan bog'liq, atrof-muhitga issiqlik yo'qotilishi esa hisobga olinmaydi:

$$G_j \cdot \frac{dh_j}{d-} - L_{j-1} - (h_{j-1} - h_j) - V_{j1} - (H_{j1} - h_j) - V_j - (h_j - H_j) - F_j - (h_{f,j} - h_j). \quad (5)$$

Bug' fazasining muvozanat tarkibi \bar{y}^* fazaviy muvozanat modeli asosida aniqlanadi va umumiy ko'rinishda suyuqlik fazasi tarkibi hamda qurilmadagi bosimning funksiyasi sifatida ifodalanishi mumkin:

$$\bar{y}^* = f(\bar{x}_j, P_j). \quad (6)$$

Mos ravishda ajratish kolonnasidagi harorat, suyuqlik va bug' fazalarining entalpiyalari quydagicha hisoblanadi:

$$t_j = f(x_j, P_j); h_j = f(\bar{x}_j, P_j) \text{ va } H_j = f(\bar{y}_j, P_j). \quad (7)$$

Quyidagi fazaviy holat xomashyo oqimining entalpiyasini belgilaydi:

$$h_{f,j} = f(\bar{x}_{f,j}, P_{f,j}, t_{f,j}). \quad (8)$$

(1) (8) ifodalar kolonnaning alohida kontakt qurilmasi dinamik rejimlarini hisoblash masalasini yechish imkonini beradi. Izlanayotgan kattaliklarni aniqlash uchun quyidagi algoritm taklif etiladi:

1) Modellashtiriladigan tarelkaga ta'minot oqimini uzatish sharti tekshiriladi. Shart bajarilganda xomashyo entalpiyasi $h_{f,j}[k+1]$ (8) va kolonnaga berilayotgan issiqlik sarfi hisoblanadi.

2) Qurilmada suyuqlik fazasining konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$x_{j,i}[k+1] = x_{j,i}[k] + \Delta\tau \cdot \frac{L_{j+1}[k] \cdot (x_{j+1,i}[k] - x_{j,i}[k]) + V_{j-1}[k] \cdot (y_{j-1,i}[k] - x_{j,i}[k])}{G_j[k]} + \Delta\tau \cdot \frac{V_j[k] \cdot (x_{j,i}[k] - y_{j-1,i}[k]) + F_j[k] \cdot (x_{f,j,i}[k] - x_{j,i}[k])}{G_j[k]}. \quad (9)$$

3) Qurilmadagi tarkib va bosim suyuqlik fazasining entalpiyasini aniqlash imkonini beradi:

$$h_j[k+1] \quad (10)$$

4) Bug' fazasining tarkibi $H_j[k+1]$ entalpiyani belgilaydi.

5) Qurilmaning umumiy moddiy muvozanat tenglamasi (2) oxirgi noma'lum kattalikni - tarelkadan chiqayotgan suyuq fazaning sarfini aniqlash imkonini beradi:

$$L_j[k+1] = L_{j+1}[k] + V_{j-1}[k] + F_j[k] - V_j[k] - \frac{G_j[k+1] - G_j[k]}{\Delta\tau}.$$

Yoki (10) ni inobatga olgan holda yozamiz:

$$L_j[k+1] = L_{j+1}[k] + V_{j-1}[k] + F_j[k] - V_j[k] - \frac{G_j[k] \cdot \left(\frac{\mu_j[k] \cdot \rho_j[k+1]}{\mu_j[k+1] \cdot \rho_j[k]} - 1 \right)}{\Delta\tau}.$$

Ajratish kolonnasini hisoblashda ushbu jarayonlar apparatning pastki qismidan yuqoriga qarab ketma-ket amalga oshiriladi. So'ngra k qiymati 1 ga oshirilib, barcha hisob-kitoblar keyingi vaqt nuqtasi uchun takrorlanadi.

PID-rostlagich ishlatilganda boshqarish ta'sirining tarkibiy qismlari quyidagicha tavsiflanadi:

$$u_p[k+1] = K_p \cdot \Delta U_0[k+1], \quad (11)$$


$$u_i[k+1] = u_i[k] + K_p \frac{\Delta\tau}{T_i} \cdot \Delta U_0[k+1], \quad (12)$$

$$u_d[k+1] = K_p \frac{T_d}{\Delta\tau} \cdot (\Delta U_0[k+1] - \Delta U_0[k]). \quad (13)$$

Dissertatsiyaning **“Aralashmalarni ajratish jarayonlarini boshqarishning intellektual tizimlari strukturalarini ishlab chiqish”** deb nomlangan **uchinchi bobida** aralashmalarni ajratish jarayonlarini boshqarishning intellektual tizimlarini ishlab chiqish va tadqiq etish amalga oshirilgan.

Zamonaviy sanoatdagi ajratish jarayonini amalga oshiruvchi qurilmalar ko‘plab nazorat qilinadigan, g‘alayon va chiqish ta'sirlariga, shuningdek, turli holatlarga ega bo‘lgan murakkab yuqori unumli qurilmalarni namoyon etadi. Bunday jarayonlarning matematik modellarining nostatsionarliligi va nochiziqliligi, ulardagi kechikishlarni sezilarli ekanligi parametrlarning taqsimlanganligi va shu kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi, bu esa avtomatlashtirilgan boshqarishni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, ajratish qurilmalari kabi murakkab obyektlar uchun intellektual boshqarish tizimlarini qo‘llash nihoyatda istiqbolli hisoblanadi.

Birinchi galda ajratish qurilmalari uchun vaziyatli boshqarish usuli asosida amalga oshiriladigan intellektual boshqarish tizimi strukturasi taklif etilgan (2-rasm).




2-rasm. Vaziyatli boshqarish usuli asosida amalga oshiriladigan intellektual boshqarish tizimining strukturasi

Ajratisht jarayoni uchun taklif etilayotgan intellektual boshqarish tizimining arxitekturasida tajribali muhandislarning bilimlari bloki va ekspert tizimi mavjud. Bunda bilimlar bazasi turli manbalardan olingan ma'lumotlar, ajratish jarayonini boshqarish bo'yicha tajribali mutaxassislarining bilimlari asosida shakllantiriladigan axborotlar va ko'rsatmalar bilan to'ldiriladi. Ekspertli tizim soha bo'yicha mutaxassis

bilimlari asosida shakllantiriladigan qoidalar bazasi va u asosida ishlaydigan mantiqiy xulosalashni amalga oshiradi.

Ishlab chiqarishda aralashmalarni ajratish jarayoni bir paytda uchtadan yettitagacha bo'lgan ajratish kolonnalariga ega bo'lgan majmualarda amalga oshiriladi. Bunday majmualar ishini boshqarish uchun quyidagi intellektual tizimning tuzilishi taklif etilgan (3-rasm).




3-rasm. Ko'p sonli qurilmalarga ega ajratish majmualarini boshqarish uchun taklif etilayotgan intellektual boshqarish tizimining tuzilishi

Taklif etilayotgan intellektual boshqarish tizimi murakkab dinamik obyekt hisoblanadigan ajratish majmualari ishini boshqarishga mo'ljallangan. Taklif etilayotgan yangi intellektual boshqarish tizimi oldingi tizimdan tajribalarni to'plashi va ularni tahlil qilish orqali ekspert tizimi natijalariga o'zgartirish kiritish imkonini berishi bilan farqlanadi va boshqarish sifati bo'yicha biroz ustunlikka ega. Bu noaniqlik sharoitlarida g'alayon ta'sirlarini minimallashtirish masalasini yechishda o'zining afzalligini yaqqol namoyon etadi.


Fan va texnologiyalar yutuqlarining hozirgi vaqtdagi holati intellektual boshqarish tizimlarini sun'iy intellekt texnologiyalari elementlari bilan uyg'unlikda takomillashtirish imkonini beradi (4-rasm).

Taklif etilayotgan yangi boshqarish tizimi bugungi kunning zamonaviy usulini qo'llashni nazarda tutganligi bilan ajralib turadi va ajratish qurilmasi ishini uning butun hayotiy sikli davomida samarli boshqarish va buzilishlarga to'xtalishlar sonini, resurs va energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.



4-rasm. Sun'iy intellekt usullaridan foydalanib, quriladigan intellektual boshqarish tizimining tuzilishi

Taklif etilayotgan intellektual boshqarish tizimining samaradorligini etalon modeli roslash konturi orqali tekshiramiz (5-rasm).



5-rasm. Etalon modeli noaniq roslash konturi

Bu obyektning xulq-atvor xususiyatlarini lingvistik o'zgaruvchilar orqali ifodalab, tizimning dinamik xususiyatlarini tadqiq etish imkonini beradi.


Noaniq boshqarishda noaniq roslagich modelini quyidagi (14) tenglama asosida yozishimiz mumkin:

$$\dot{x} = -15\dot{x} + 122u . \quad (14)$$

Unda holat o'zgarishini ifodalovchi umumlashtirilgan matematik tenglamani quyidagi ko'rinishda olamiz:


$$u_D(x|\theta) = \frac{\sum_{l_1=1}^{m_1} \sum_{l_2=1}^{m_2} y_u^{-l_1 l_2} \left(\prod_{i=1}^n \mu_{A_i}^{l_i}(x_i) \right)}{\sum_{l_1=1}^{m_1} \sum_{l_2=1}^{m_2} y_u^{-l_1 l_2} \left(\prod_{i=1}^n \mu_{A_i}^{l_i}(x_i) \right)}; \quad (15)$$

Noaniq boshqarish tenglamasini amalga oshirish algoritmi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Noaniq boshqarish tenglamasini amalga oshirish algoritmi


Noaniq PID-rostlagichli boshqarishda rostlagichning parametrlarini optimallashtirish uchun 7-rasmda keltirilgan strukturaviy sxemadan foydalaniladi.



7-rasm. Noaniq PID-rostlagichli va an'anaviy PID-rostlagichli boshqarish tizimlari o'tish jarayonlari tavsiflarini olish uchun strukturaviy sxema

Noaniq PID-rostlagich ajratish kolonnalari dinamikasining o'zgarishlariga moslashgan holda boshqarish samaradorligini oshiradi.


Tayyor mahsulot konsentratsiyasini noaniq PID-rostlagichli va an'anaviy PID-rostlagichli rostlashdagi o'tish jarayoni grafiklarini solishtirish 8-rasmida keltirilgan.



8-rasm. An'anaviy PID-rostlagich va noaniq PID-rostlagichlar orqali tayyor mahsulot konsentratsiyasini rostlash natijalari


Noaniq mantiq asosida ishlovchi noaniq rostlagichli intellektual boshqarish tizimlari klassik boshqarish tizimlariga nisbatan yaxshiroq sifat ko'rsatkichlarini namoyon etdi.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida texnologik jarayonlarni boshqaruvchi xodimlar uchun kompyuterli trenajyor ishlab chiqish”** deb nomlangan **to'rtinchi bobida** texnologik jarayonlarni boshqaruvchi operatorlar uchun takomillashgan funksiyali kompyuterli intellektual trenajyor ishlab chiqilgan.




9-rasm. Intellektual kompyuter trenajyorli o'qitish tizimining strukturaviy sxemasi

Ushbu trenajyor operatorlarga o'z ko'nikmalarini haqiqiy ish vaziyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan sharoitlarda, xavf-xatarsiz va minimal xarajatlar bilan mashq qilish imkonini beradi. Trenajyor bilan birgalikda kontrollerlar, asboblari paneli yoki haqiqiy asboblari va uskunalarini taqlid qiluvchi boshqa qurilmalar kabi maxsus uskunalaridan foydalanish mumkin.



10-rasm. Muhandis xodimlar-operatorlarning bilim va ko'nikmalarini diagnostika qilish algoritmi




11-rasm. Muhandis - operatorlarning bilim va ko'nikmalarini kompyuterli trenajyorda o'qitishdan keyingi va oldingi natijalari tahlili

1-jadval


Operatorlarning favqulodda holat ssenariylari bo'yicha harakatlarining muvaffaqiyatli bajarilish ko'rsatkichlari

Senariy	Muvaffaqiyatli bajarilish ko'rsatkichi (%)
Uskunani ishdan chiqishi	85
Sizib chiqish	90
Yonib ketish (yorqinlik)	75
Elektr ta'minoti uzilishi	88
Operator xatosi	93




Kompyuterli trenajyorda o'qitishdan oldingi va keyingi holat bo'yicha operatorlarning ko'nikmalarini taqqoslash

Ko'nikmalar	O'qitishdan oldin (%)	O'qitishdan so'ng (%)
Aniqlik	70	90
Tezlik	60	85
Muvofiqlashuv	75	95
Reaksiya	65	88
Tahlil	55	80



Kompyuterli trenajyorda o'qitishdan oldingi va keyingi holat bo'yicha operatorlarning turli vazifalarda qaror qabul qilish tezligini taqqoslash

Vazifa	O'qitishdan oldin qaror vaqti (sek.)	O'qitishdan so'ng qaror vaqti (sek.)
1-vazifa	12	8
2-vazifa	15	9
3-vazifa	14	10
4-vazifa	13	8
5-vazifa	16	11



Kompyuterli trenajyor orqali olib borilgan taqiqot natijalari xodimlarning bilimini mustahkamlash, ularni texnologik jarayonlardagi xatolarga nisbatan sezgirlikni oshirish va favqulodda holatlarga tayyorlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

“Sanoat korxonalarini boshqarish uchun muhandis xodimlarni tayyorlashning kompyuterli o'qitish tizimlari” mavzusidagi dissertatsiya ishini bajarish jarayonida quyidagi natijalar olindi:

1. Sanoat korxonalaridagi murakkab texnologik jarayonlarni boshqaruvchi muhandis xodimlarni o'qitishga xizmat qiluvchi kompyuterli trenajyorlarni qurish usullari va ulardagi kamchiliklar tahlil qilingan va tasniflangan bo'lib, mazkur tahlil natijalari texnologik jarayonlarni boshqarishni o'rganuvchilar uchun tarkibida kompyuterli trenajyori bo'lgan samarali o'qitish tizimlarini qurishga xizmat qiladi.

2. Sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlarni boshqaruvchi muhandis-operatorlarning bilim hamda ko'nikmalarini baholash imkoniyatini beruvchi

takomillashgan funksiyali kompyuterli trenajyor Unisim Design muhitida ishlab chiqilgan. Mazkur kompyuterli trenajyor sanoat korxonalaridagi operatorlar hamda oliy ta'lim muassasalarida talabalarda kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoatidagi murakkab texnologik jarayonlarini boshqarishni hamda turli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini hosil qilish imkonini beradi.

3. Ajratish jarayonining modeli issiqlik va moddiy balans tenglamalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur modellar aralashmalarni ajratish texnologik jarayonlarini boshqarishning o'qitish tizimlarini asosi hisoblanuvchi kompyuterli trenajyorlarni qurish imkonini beradi.

4. Texnologik jarayonlarni boshqaruvchi operatorlarning bilim va ko'nikmalarini diagnostika qilish imkonini beruvchi algoritm ishlab chiqilgan. Mazkur algoritm operatorlar va jarayonlarni boshqarish sohasida ta'lim oluvchilarning turli texnologik jarayonlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

5. Sanoat ishlab chiqarishidagi turli vaziyatlarning senariylari asosida operatorlarning qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholash va nazorat qilish uslubiyati ishlab chiqilgan. Mazkur uslubiyat sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlarni boshqaruvchi operatorlarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash imkonini beradigan kompyuterli trenajyorli o'qitish tizimlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

6. Texnologik jarayonlarni vaziyatli boshqarish va intellektual texnologiyalar asosida ajratish qurilmasi va majmualarini intellektual boshqarish imkonini beruvchi boshqarish tizimlarining strukturalari ishlab chiqilgan. Mazkur boshqarish tizimi strukturalaridan foydalanish aralashmalarni ajratishning murakkab texnologik jarayonlarini boshqarish sifatini yaxshilash va energiyani tejash imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АБДУЛЛАЕВА КАМОЛА РУСТАМОВНА

**КОМПЬЮТЕРНЫЕ ОБУЧАЮЩИЕ СИСТЕМЫ ДЛЯ ПОДГОТОВКИ
ИНЖЕНЕРНЫХ КАДРОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ
ПРОМЫШЛЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ**

**05.01.08 – Автоматизация и управление технологическими процессами и
производствами**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В2023.3.PhD/Г3886.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.tdtu.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Авазов Юсуф Шодиевич
доктор технических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Севинов Жасур Усмонович
доктор технических наук (DSc), профессор

Иваньян Арсен Игнатъевич
доктор технических наук (DSc)

Ведущая организация: Навоийский государственный горно-технологический университет

Защита диссертации состоится « 25 » 10 2025 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.03.02 при Ташкентском государственном техническом университете. (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2.Тел: (99871)207-07-32; факс: (99871) 207-14-64; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано № 46). (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (998971) 207-14-70)

Автореферат диссертации разослан « 10 » 10 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 409 от « 23 » 08 2025 года.)



Н.Р. Юсупбеков
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор, академик АН РУз

У.Ф. Мамиров
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук (DSc), профессор

Х.З. Игамбердиев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор, академик АН РУз

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в последние время в сфере автоматизации технологическими процессами и производствами особое внимание уделяется использованию компьютерных тренажеров для обучения операторов принципам управления сложными технологическими и техническими системами, применяемыми передовыми странами, и оценки их навыков. Эти системы поддерживаются развитыми странами в области автоматизации технологических процессов и производств. Сегодня широкое применение обучения специалистов на основе симуляторов при подготовке кадров для химической, нефтехимической, энергетической отраслей, а также военной сферы занимает ведущее место в промышленных отраслях. В этой связи в развитых странах одной из актуальных задач является разработка систем обучения, включающих компьютерные тренажеры, служащие безопасности промышленности и повышению качества выпускаемой продукции за счет улучшения навыков управления процессами инженеров-операторов в различных ситуациях. Более того, указанные системы обучения должны оптимально управлять технологическими процессами и устройствами на основе симуляторов и компьютерных тренажеров, имитирующих различные технологические процессы, а также снижать количество аварийных ситуаций.

В мире ведутся научные исследования, направленные на повышение качества управления технологическими процессами разделения различных сложных смесей. В этом отношении, в частности, актуальными считаются создание автоматизированных оперативных систем по улучшению показателей качества продукции, получение математических моделей, хорошо описывающих динамику процесса разделения, обучение операторов, управляющих технологическими процессами, разработка усовершенствованных компьютерных тренажеров, оценивающих их знания и навыки. В связи с этим особое внимание уделяется исследованиям по разработке энергосберегающих систем управления различными технологическими процессами и повышению квалификации и навыков инженеров-операторов в соответствии с производственными ситуациями для управления безаварийных состояний, а также созданию компьютерных тренажеров с виртуальными функциями, служащих для оценки их знаний.

В нашей республике в настоящее время особое внимание уделяется развитию научно-технических направлений автоматизации и управления технологическими процессами и производствами, в частности, созданию компьютерных тренажерных обучающих систем, играющих важную роль в формировании навыков, обеспечивающих энерго- и ресурсосбережение при автоматизации и управлении технологическими процессами разделения смесей, а также техническую и технологическую безопасность при управлении операторами технологических процессов и оборудования. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, определены задачи, в том числе «...сокращение энергопотребления и ресурсозатрат в экономике, внедрение энергоэффективных технологий в

производство, повышение производительности труда в отраслях экономики»¹. Для выполнения этих задач, в том числе создание интеллектуальных систем управления сложными технологическими процессами и устройствами на промышленных предприятиях, а также разработка компьютерных тренажеров, отражающих в себе реальные производственные ситуации для повышения знаний и навыков инженеров-операторов, управляющих ими, являются одними из важнейших.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-№6079 от 5 октября 2020 года Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030», УП-№60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-№4022 от 21 ноября 2018 года «О мерах по дальнейшей модернизации цифровой инфраструктуры в целях развития цифровой экономики», ПП-№3673 от 18 апреля 2018 года «Об организационных мерах по ускоренной интеграции ведомственных информационных систем и реализации инновационных проектов», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий Республики Узбекистан III. «Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий» и VI. «Химические технологии, нефтехимия и нанотехнологии».

